PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

ERKIN SAMANDARNING “YOT HUJRA” TARIXIY DRAMASIDA OBRAZLAR TALQINI

Atadjanov G‘ulomjon To‘xtaboevich
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi O‘zbek tili va xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi.
atadjanovgulomjon262@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada dramadagi tarixiy va to‘qima obrazlar tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy haqiqatga yaqinligi haqida ham so‘z yuritiladi.
KALIT SO‘ZLAR: tarixiy obraz, tarixiy haqiqat, badiiy to‘qima, konflikt.

ABSTRACT: This article analyzes the historical and fictional characters in the drama. It also discusses its closeness to historical truth.
KEY WORDS: historical image, historical truth, artistic texture, conflict.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются исторические и вымышленные персонажи драмы. Также обсуждается степень её соответствия исторической правде.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: исторический образ, историческая правда, художественная текстура, конфликт.

KIRISH. Yurtimizda tarixiy shaxslar ko‘p o‘tgan. Ularni yaxshi nom bilan eslash har birimizning burchimizdir. Zero, tarixda o‘tgan avlod-ajdodlarimizning buyuk ishlari, kashfiyotlari hozirgi hayotimiz uchun ibrat, kelajakni barpo etishda poydevor vazifasini bajaradi. “Tarixiy xotirasiz-kelajak yo‘q” deb bekorga aytilmagan. Yurtimizdagi nomi ulug‘ siymolardan biri, mashhur sarkarda Jaloliddin Manguberdidir. U mamlakatdan mo‘ng‘ullarni quvib chiqarish uchun umrining oxirigacha kurashdi. Ushbu drama voqealari Kavkazortida ro‘y beradi. Pyesada tarixiy shaxslardan Jaloliddin Manguberdining bir o‘zi gavdalanadi. Qolgan obrazlarning barchasi muallif tomonidan o‘ylab topilgan to‘qima obrazlardir. Dramaga material sifatida sarkardaning so‘nggi yillari olingan bo‘lib, voqealar Kavkazortida tog‘lik musulmonlar qishlog‘ida bo‘lib o‘tadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. To‘qima obrazlar ham unchalik ko‘p emas. Abutolib, Ibn Xalloj, Sayfiy, Solmon va yana bitta oila. [1] Yot hujrada holdan toygan, chalajon va yarador Jaloliddinni Sa’laba va uning qizi Umayalar davolayotganidan boshlanadi. Mo‘ng‘ullardan qochayotgan Jaloliddin Manguberdi chalajon holatda tog‘ bo‘yida hushidan ketadi. Uni Abu Zayd ismli yigit Ibn Ammorning o‘g‘li uyiga olib keladi. Mana shu tarzda asosiy voqealar boshlanadi. Xuddi rivoyatlarda bo‘lganidek, hujra egasi Ibn Ammor Jaloliddining kelishini avvaldan biladigandek his etadi. Kichik hujramiz koshonaga ayladi deb o‘z-o‘ziga gapiradi. Bu kelgan mehmonning buyukligini bashorat qiladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR. Dramada Jaloliddin nafaqat sarkarda sifatida balki, har tomonlama yetuk inson sifatida gavdalanadi. Buni uni sudlamoqchi bo‘lgan davlat amaldorlariga qilgan hiylasidan bilsa bo‘ladi. U cho‘ntagida qolgan bir necha tangalarini ularning ustidan sochadi natijada pulga o‘ch, amalparast ekanliklarini mana shundan bilib oladi. Dramaning muvaffaqiyati undagi tarixiy fakt va badiiy to‘qimaning yaxlit uyg‘unlik kasb etganidir. Jaloliddin va o‘ram voliysi, oqsoqollar o‘rtasida savol-javob bo‘lar ekan, otasi Muhammad Xorazmshohni qochib ketganlikda, onasi, ayoli va farzandlarini Amudaryoga oqizib yuborishda ayblaydi. Natijada uni qonxo‘r va vaxshiyga chiqradi. Bular to‘qima obrazlar mahsuli bo‘lsa ham, tarixiy asosga ega.Tarixdan barchaga

ma’lumki, Muhammad Xorazmshoh qochqinlikda vafot etadi. Mo‘ng‘ullarning juda ham vahshiyligi tufayli onasining vasiyatga muvofiq Jaloliddin onasi, ayoli va bolalarini Amudaryoga suvga oqizadi. Mo‘ng‘ullar qo‘lida xor-zor bo‘lib o‘lgandan ko‘ra, o‘zlarini cho‘ktirib yuborishni ma’qul ko‘radilar. Dramada Solmonning ukasi Suxaylni Jaloliddin Manguberdi o‘ldirgan bo‘ladi. Umaya uyidagi odam uning bo‘lg‘usi turmush o‘rtog‘i Suhaylning qotili ekanligini bilib qoladi. So‘ngra bu gapni Solmonga yetkazadi. Solmon ukasining xunini olish uchun kelib avval Abu Zaydni o‘ldiradi, keyin Jaloliddinning oldiga kirishi bilan yakuniga yetadi. Asarda badiiy detal sifatida oltin tanga va kamar tilga olinadi. Shuningdek, sarkarda oq otda tasvirlanadi. Mizga ma’lumki oq ot g’alaba ma’nosini bildiradi. Jaloliddinning cho’ntagidagi bir necha tanga tasodifiy qolgan. Bu tangalar orqali davlat amaldorlarini sinab ko’radi. Qop-qop oltinim bor deb sinab aytgan gapiga amaldorlar ishonadi va bir-birlarining go’shtini yeyishga tayyor bo’ladilar. “Tarixiy-biografik asarlarda butun dunyoga mashhur bo‘lgan tarixiy shaxs tanlab olinishining sababi uning murakkab taqdirini ko‘rsatish va qilgan ishlarini namoyish qilish bo‘lib qolmasligi kerak. Tarixiy shaxsning qalbidan, ruhiyatidan o‘tayotgan kechinmalarni; adolat va adolatsizlik, iste’dod va iste’dodsizlik, ma’rifat va jaholat, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashlarni ochish azal-azaldan insoniyatni qiynab kelgan ijtimoiy g‘oyalardir. Biroq har qanday vaziyatda ham ulardagi asosiy umumiylik bosh qahramonning ruhiy g‘alabasidir. Aynan mana shu omil tarixiy asarlarning bugungi kun uchun dolzarbligini oshiradi va kishilarning hayotiy murakkabliklarda toblanishiga, kurashlarda irodali bo‘lishga undaydi”.[2.76-77]

XULOSA. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tarixiy obraz bilan birgalikda to‘qima obrazlar ham xuddi hayotda bordek gavdalangan. Bu asar bundan keyingi tarixiy dramalarga asos bo’ldi. Xususan, Nazar Eshonqul “Jaloliddin Manguberdi”, To’ra Mirzo “Jaloliddin Manguberdi” qo’g’irchoq dramalarini yozdilar. Bu dramalarda ham to’qima obrazlar mavjud. Nazar Eshonqulning “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy dramasida konklikt asosan davlatdagi ichki ziddiyatlar, taxt uchun kurash va dushmani mo’g’ullar o’rtasida kechsa, bu obrazlarning hammasi tarixiy haqiqatga yaqinligi bilan ajralib turadi. To’ra Mirzoning “Jaloliddin Manguberdi” qo’g’irchoq dramasida faqat Jaloliddin va Chingizxon o’rtasida kechadi va boshqa konfliktni ko’rmaymiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Erkin Samandar “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy fojiasi. -Toshkent: 1999 y.
2. B.Yakubov “ Zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasi va uning sahnaviy talqini (1991-2016 yy.)” diss.T 2019.
3. Буниётов “Ануштегиний - хоразмшоҳлар давлати (1097-1231)” – Тошкент. Янги аср авлоди, 2023